



## O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA MOTAM BILAN BOG'LIQ LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Z.Xusanova

Farg'ona davlat universiteti I bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7943678>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2023 yil

Ma'qullandi: 15-May 2023 yil

Nashr qilindi: 17-May 2023 yil

### KEY WORDS

*motam, dafn, urf-odat,  
lingvokulturologiya.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada o'zbek va nemis tillarida motam leksemalarining tavsifi, dafn marosimi o'tkazish tartibi, motam bilan bog'liq leksik birliklar o'zbek va nemis tillari misolida o'xshash va farqli tomonlari tahlil etiladi.*

O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyoj oshirmoqda. Chet tillarini o'rganish, faqat u tilda ravon so'zlashish emas, balki ushbu mamlakatning madaniyati, urf-odatlarini chuqurroq anglash hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

O'zbek entografiyasiga doir materiallar filologiya sohasida to'y marosimlari nomlari, to'y qo'shiqlarining lingvistik talqini, o'zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqi dialektal asosda o'rganilgan bo'lib qiyosiy tilshunoslikda urf-odat ifodalovchi motam bilan bog'liq leksik birliklar qiyosiy planda alohida tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada o'zbek va nemis xaqqlarining motam bilan bog'liq lug'aviy birliklari tahlil etiladi.

Bugungi kunda dunyo xalqlari sakkiz milliarddan ziyodni tashkil etmoqda. Ularning yashash tarzi, madaniyati, urf-odatlari, marosimlari, uzoq asrlik tarixi, qadriyatlar va an'analarini lingvokulturologik aspektda tadqiq etamiz.

Avvalo, biz motam lug'aviy birliklarining o'zbek va nemis tillaridagi izohli lug'atlarga murojaat qilamiz. O'zbek tilining izohli lug'atida motam leksemasiga quydagicha ta'rif beriladi.

**Motam** – yaqin yoki mo'tabar kishining o'limi tufayli yuzaga kelgan qayg'uli holat; **azadorlik** va shu munosabat bilan bog'liq bo'lgan **ma'raka**, **ta'ziya**, **rasm-rusumlar**. **Motam bayrog'i**, **motam libosi**, **motam majlisi**, **motam marshi**.

*Akasining dardi bilan to'lgan qalbi uchun, yaqindagina o'lgan onasining motami o'z keskinligini bir daraja yo'qotgan edi. /Oybek, Tanlangan asarlar/*

*Hamza o'ldirilgan Shohimardonda motam edi. /N.Safarov, Olovli izlar/*

*Muzaffar zotlarga motam nojoiz, Ularning haqqidir faqat iftixor. /A.Oripov/ [4, 532]*

Nemis tilining izohli lug'atida esa motam (**Beerdigung**) leksemasiga quydagicha ta'rif berilgan.

**Beerdigung** – meist feierliche Beisetzung der sterblichen Überreste eines Toten in der Erde. (Dafn marosimi - asosan o'lgan

odamning murdasini yerga dafn etish marosimi). [2, 73]

Die Beerdigung ist für 11 Uhr angesetzt. Die Beerdigung findet in extravaganter Atmosphäre in New York statt. Dafn marosimi soat 11:00 ga belgilangan. Dafn marosimi Nyu-Yorkda ekstravagant muhitda bo'lib o'tadi.)

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatdiki, o'zbek va nemis tillaridagi motam leksemalarining ma'nolari deyarli bir-biridan farq qilmaydi.

Motam marosimlari insonlarning ilmiy, diniy tasavvurlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi, yashash sharoiti va boshqa omillar ta'sirida o'zgarib boradi. Dafn marosimlari o'tkazilgandan so'ng ham yil davomida marhumga bag'ishlab turli marosimlar o'tkazilishi odat tusini olgan. Marosimlarga quydagi leksemalar misol bo'ladi: **uch, yetti, yigirma, qirq, payshanbalik, yakshanbalik** kabilardir. Bizga ma'lumki, motam libosi sifatida ayollar uchun qora va ko'k rangli kiyimlar, erkaklar uchun esa to'n va do'ppi kiyib bellariga chorsi bog'laydilar. Bir yildan so'ng ayollar motam liboslari, ya'ni qora ko'ylaklarini yechib oq kiydi marosimini o'tkazadilar. Bu marosim Toshkentda **oq solar**, Farg'ona vodiysida **oq kiydi** deb nomlanadi. Motam bilan bog'liq marosimlar yilning turli fasllarida o'tkazib kelinadi. Bahorda gul, kuzda qovun-uzum, qovoq oshi, qishda qor yog'di kabilardir.



Nemis xalqlarida dafn ma'rosimlari ko'pincha qabristonda, ba'zan esa cherkovlarda o'tkaziladi. Nemislarning juda ham oz qismi an'anaviy dafn marosimini tanlaydilar. Agar o'lim uyda sodir bo'lgan bo'lsa 36 soatgacha uyda saqlanishi mumkin. Ilgari har bir azador qabrga bir hovuch yoki bir belkurak tuproq tashlashi odat edi. Bu qabrni birgalikda qazishlari va tananing o'tkinchiligi ramzi sifatida talqin qilib kelingan. [1,25] Dafn marosimi qahvasi dafn marosimida eng ko'p tarqalgan an'analadan biridir. Qahva ichish davomida marhumni birga eslash, ular haqida latifalar, hikoyalar aytish uchun yoqimli muhit yaratadi. Nemislarda motam kiyimlari qora, to'q ko'k, kulrang rangli bo'ladi va ularda ham bir yilgacha motam kiyimlari kiyiladi.

Nemis xalqida dafn marosimi uchun qabriston ibodatxonasi yoki dafn marosimining vidolashuv xonasi azador va dafn marosimiga kelganlar ihtiyoriga topshiriladi. Motam marosimida marhum va uning xotirasi turadi. Nemislar dafn marosimida **gullar, gulbarglar**

**solingan oq savat, musiqa, qo'shiq, she'r, hamdardlik uchun vidolashuv, nutq va duo** leksemlari alohida ahamiyat kasb etadi. Marosim musiqa bilan ochilgandan so'ng, Injildan iqtiboslar turli xil qo'shiqlar kuyiladi va qabr tomon yurishlari kuzatiladi. Nemis xalqi yosh bolalarga ham motam marosimi va uni o'tkazish tartiblarini yoshlikdan o'rgatilishi kuzatiladi.



Yangi O'zbekiston va Germaniya aloqalarining kundan kunga rivojlanishi hozirgi kunda o'zbek va nemis millatlarini milliy xususiyatlarini chuqur o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra, turli millatga mansub o'zbek va nemis xalqlarining urf-odatlarini qiyosiy asosda tadqiq etish bugungi kunda juda katta amaliy va nazariy ahamiyatga ega hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bonhoeffer D. Die Psalmen (Das Gebetbuch der Bibel). – München, 2016. – 25 S.
2. Nillson U, Eriksson E. Die besten Beerdigungen der Welt. – Moritz, 2007. – 73 S.
3. Pazilova, Z. (2021). Traditions as an integral part of ethnoculture. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 689-691.
4. Kakharov, K. (2023). FORMS OF GREETING AND ADDRESS IN THE UZBEK AND GERMAN PEOPLES. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 635-637.
5. Kaxarov, Q., & Usmanova, F. (2023). NEMIS TILIDAGI GRAMMATIK KATEGORIYALARNING O 'ZIGA XOSLIKLARI VA ULARNI O 'ZBEK TILI BILAN TAQQOSLASH. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMYIY JURNALI, 3(4), 148-151.
6. Kakharova, M. (2023). ASSESSMENT OF THE KNOWLEDGE OF LANGUAGE LEARNERS. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(4), 181-184.
7. Kaxarova, M. M., & Aripova, S. (2023). UNIQUE CHARACTERISTICS OF LEXEMES RELATED TO MARRIAGE IN DIFFERENT COUNTRIES. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(4), 185-188.
8. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. 1-том. Т.: "ЎЗМЭ" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 532 б.
9. Пазилова, З. Ш. (2022). ЎЗБЕК ВА НЕМИС ХАЛҚЛАРИДА БОЛАЛИК ДАВРИГА ХОС БЎЛГАН УРФ-ОДАТ ИФОДАЛОВЧИ

ЛЕКСИК ИФОДАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. OLIY VA O 'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 122.



INNOVATIVE  
ACADEMY